

NASX ATAMASI TA'RIFLARI QIYOSIY TAHLILI

Xusanboyeva Nasiba Azim qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Tel: +998974800661

*Email:*nasibanadjimova86@gmail.com

**A COMPARATIVE ANALYSIS OF DEFINITIONS OF THE TERM
NASKH'**

Xusanboyeva Nasiba Azim qizi

International Islamic Academy of Uzbekistan

4nd stage student of Islamic studies

Phone: +998974800661

*Email:*nasibanadjimova86@gmail.com

Annotation. This article analyzes the definitions of the term “naskh” (abrogation), which is one of the key methodological concepts in Islamic scholarship. It presents a comparative study of the interpretations provided by scholars in various Islamic sources. Since the concept of naskh holds an important place in the sciences of the Qur'an, Hadith, and Islamic jurisprudence, its clear and consistent definition is crucial for the correct understanding of Islamic legal rulings. The article examines both classical sources (such as Imam al-Shafi'i, Imam Abu Hanifa, al-Zamakhshari, Fakhr al-Din al-Razi, and others) and contemporary scholarly explanations, highlighting the differences between the linguistic and technical (terminological) meanings of the term. The results of the research provide an academic analysis of the scholarly disagreements surrounding naskh, its impact on legal rulings, and the way it is reflected in modern interpretations.

Keywords. Naskh, Mansukh, Usul al-Fiqh, Scholarly Definition,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Comparative Analysis, Islamic Legal Rulings, Terminological Meaning, Qur'an and Sunnah, Abrogation (Naskh), Hadith.

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom ilmidagi asosiy usuliy tushunchalardan biri bo‘lgan “nasx” (bekor qilish) atamasining ta’riflari tahlil qilinadi va turli islomiy manbalarda ulamolar tomonidan berilgan izohlar qiyosiy tarzda o‘rganiladi. Nasx atamasi Qur'on, hadis va fiqh ilmlarida muhim o‘rin tutgani bois, uning aniq va izchil ta’riflanishi shar’iy hukmlarning to‘g‘ri anglanishida katta ahamiyat kasb etadi. Maqolada klassik manbalar (Imom Shof'iyy, Imom Abu Hanifa, Zamaxshariy, Fahriddin Roziy va boshqalar) bilan bir qatorda zamonaviy olimlarning izohlari ham ko‘rib chiqilib, nasx atamasining lug‘aviy va istilohiy jihatlari o‘rtasidagi farqlar ochib beriladi. Tadqiqot natijalarida nasx tushunchasi atrofidagi ixtiloslar, uning shar’iy ahkomlarga ta’siri va zamonaviy sharhlarda qanday aks etayotgani ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so’zlar. Nasx, Mansux, Usul al-fiqh, Ilmiy ta’rif, Qiyosiy tahlil, Shar’iy hukm, Istilohiy ma’no, Qur'on va sunnat, Abrogation (Nasx), hadis.

KIRISH

Ushbu maqolada islom ilmidagi asosiy usuliy tushunchalardan biri bo‘lgan “nasx” (bekor qilish) atamasining ta’riflari tahlil qilinadi va turli islomiy manbalarda ulamolar tomonidan berilgan izohlar qiyosiy tarzda o‘rganiladi. Nasx atamasi Qur'on, hadis va fiqh ilmlarida muhim o‘rin tutgani bois, uning aniq va izchil ta’riflanishi shar’iy hukmlarning to‘g‘ri anglanishida katta ahamiyat kasb etadi. Maqolada klassik manbalar (Imom Shof'iyy, Imom Abu Hanifa, Zamaxshariy, Fahriddin Roziy va boshqalar) bilan bir qatorda zamonaviy olimlarning izohlari ham ko‘rib chiqilib, nasx atamasining lug‘aviy va istilohiy jihatlari o‘rtasidagi farqlar ochib beriladi. Tadqiqot natijalarida nasx tushunchasi atrofidagi ixtiloslar, uning shar’iy ahkomlarga ta’siri va zamonaviy sharhlarda qanday aks etayotgani ilmiy asosda tahlil qilingan.

ASOSIY QISM

Lug’at va usul ulamolari kitoblaridan nasx so’zining ma’nolari, ishlatilish o‘rnlari borasida ko’plab ma’lumotlar topish mumkin. Jumladan, Abu Ja’far

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Nahhos o'zining “An-nosix va mansux fi Quranil-karim” asarida quyidagicha keltiradi:

“Nasx ikki narsadan kelib chiqqan: birinchisi, agar quyosh soyani ketkazsa quyosh soyani nasx qildi, deyiladi (bunda ketkazish degan ma'nodan olingan bo'ladi). Ikkinchisi esa, kitobni nasx qildim, deysiz, agar undan bir nusxa ko'chirsangiz. Nasx va mansux mana shu ikkisiga ko'ra bo'ladi”¹.

Muhammad Ali Sobuniy hafizahulloh esa nasx 3 xil ma'noda: o'chirish, ketkazish va almashtirish ma'nolarida ishlatilishini bayon qilganlar.

Endi nasx, va undan kelib chiqqan nosix va mansux lafzlariga to'xtalib, ularning nima ma'no anglatishi o'r ganildi.

Nasx – nasx qilmoq, nasx ishini bajarmoq ma'nolaridagi o'zak so'z bo'lib, nasx lafzi qaysi ma'no anglatishidan qat'iy nazar o'sha ishning sodir bo'lishi tushuniladi. Quyoshning nurni ketkazishi, kitobning ko'chirilishi va hokazolar.

Nosix – nasx qiluvchi, nasx ishini bajaruvchisi tushuniladi. Masalan quyosh, kitobni ko'chiruvchi kishi va boshqa ma'nodagi o'rniga qarab o'sha ishni bajaruvchilar.

Mansux – nasx qilingan, nasx ishi uning ustida bajarilgan narsa tushuniladi. Masalan quyosh ketkazayotgan soya, kitobdan ko'chirilgan narsa va boshqa ma'nodagi o'rniga qarab qilingan ish tushuniladi.

Shariatdagi hukmlar yoki oyatlardan misol:

Biror hukmni bekor qiluvchi oyat yoki hukm nosix, bekor qilingan oyat yoki hukm mansux, mana shu ishning amaliyoti esa nasx bo'ladi.

Nasx va undan kelib chiqqan so'zlarning lug'aviy ma'nolari hamda ular borasida aytilgan ta'riflar haqida ma'lumotga ega bo'lindi. Ushbu ma'lumotlarga asoslangan holda nasxning ketkazish va ko'chirish ma'nolariga bir xil kuchga teng tarzda dalolat qiladi, desa bo'ladi. Yoki ikkisidan biri haqiqiy ma'no, ikkinchisi majoziy ma'no bo'lishi mumkin. Ulamolar nasx lafzidagi asosiy ma'no qaysi ekanligi borasida to'rt xil qarashlarni olg'a surganlar. Quyida ular haqida batafsilroq to'xtalindi:

¹Abu Ja'far Nahhos. An-nosix va mansux fi Quranil-karim. – Bayrut: Maktabat ash-Shamiliyya, 2018. – B. 92.
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

1. Nasx so‘zi ikki ma’noda ham haqiqat, ikki ma’noni anglatishda teng kuchga egadir. Bu Abu Bakr Boqilloniy va G‘azzoliylarning birinchi fikr tahlili. Ushbu fikrni olg‘a surganlar ikki ma’no – ketkazish hamda ko‘chirish ma’nolarida lafzan mushtarak deyishlari bilan birga bitta lafz ikki ma’noda teng kuchga ega, biri ikkinchisidan ustun emas, degan bo‘ladi. Shunda ikkalasiga ishlatilganligiga binoan mushtarak deb hukm qilish lozim bo‘lib qoladi. Lafzning bir ma’noga ishlatilishidagi asl qoida esa haqiqat bo‘lishi kerak.

2. Nasx so‘zi ko‘chirish, naql qilish ma’nolarida haqiqatdir. Bu Qaffol Shoshiyning so‘zidir.

Ikkinci fikr tahlili. Bu fikr egalari nasx – ko‘chirish ma’nosida haqiqat, deb qarashlari ikki xil asoslanadi:

Sizning “kitobni nusxa qildim” degan gapingizda agar ko‘chirish haqiqat bo‘lsa, maqsad o‘sha bo‘ladi. Agar majoz deb qaralsa u ketkazish ma’nosidan isti’ora bo‘la olmaydi. Chunki nusxa qilingan narsa ketkazilgan ham emas, yoki ketkazishga o‘xshagan narsa ham emas. Demak, ko‘chirish ma’nosiga o‘xshaganligi uchun o‘sha ma’nodan isti’ora qilingan bo‘ladi. Ko‘chirish ma’nosidan isti’ora qilingan bo‘lsa o‘sha ma’noda haqiqat ham bo‘ladi. Bitta ma’noda sheriklikni daf qilish maqsadida undan boshqa ma’noda majoz bo‘ladi².

Nasx lafzining ko‘chirish ma’nosida ishlatilishi juda ham ko‘p, ketkazish ma’nosida esa avvalgiga nisbatan kamroq. Shunday ekan ishlatilishi qaysi ma’noda ko‘p bo‘lsa o‘sha ma’noda haqiqat bo‘ladi, kamroq qo‘llanilganida esa o‘z-o‘zidan majoz bo‘lib qoladi. Chunki haqiqat ishlatilish jihatidan majozdan ko‘proq bo‘ladi. Shu boisdan qaysi o‘rinlarda ozgina foydalanilgan o‘rinlarda haqiqat qilish joiz emas.

3. Nasx so‘zi ketkazish, yo‘qotish ma’nolarida haqiqat, ko‘chirish ma’nosida esa majozdir. Bu Imom Roziyning ixtiyor qilgan fikri bo‘lib, bu fikrga Abul-Husayn Basriy ham qo‘silgan.

Uchinchi fikr tahlili. Bu fikrdan esa nasx lafzini ketkazish ma’nosida haqiqat

² Ibn Hajar. Nuzhat an- Nazor sharhu nuhbat al-Fikar. – Bayrut: Maktabat ash-Shamiliyya, 2020. – B. 57.

www.tadqiqotlar.uz

20-to‘plam 2-son Iyun 2025

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ekani ikki xil uslubda ta'kidlanadi.

Birinchidan, lafz faqat shu ikki ma'noda umumiy ishlatalig'an. Shunday ekan naql (ko'chirish) ma'nosida haqiqat bo'la olmaydi. Negaki, kitobni nusxa qildim degan gapingizda haqiqatda kitobning aniq o'zini nasx qilinganini ko'rsatib bera olmaydi, balki bu uning o'xshashidir. Shunday ekan, majozni ko'pligini aytib o'tirmagan holda ham ketkazish ma'nosida haqiqat bo'lishi tayin topadi.

Ikkinchidan, ko'chirishning ma'nosni xosroq, ketkazish ma'nosni esa umumiyoqdir. Buning sababi ko'chirish – bir narsaning sifatini yo'q bo'lishi, boshqa sifatning paydo bo'lishini ifodalaydi. Ketkazish esa mutlaqo yo'qotish demakdir. Lafz umumiy va xos lafzning o'rtasida aylanadigan xosni lafzni qo'yib umumiy ma'noda haqiqat qilib olinishi avloroq hisoblanadi. Chunki umumlikda yanada ko'proq foyda bo'ladi.

4. Nasx so'zi ikkala ma'noda ham ma'nan mushtarak hisoblanadi. Bu gapni Shavkoniy "Burhon" kitobida Ibn Munirga tegishli deb aytgan³.

To'rtinchi fikr tahlili. Nasx lafzining ko'chirish va ketkazish ma'nosida ma'nan mushtarak degani quyidagichadir:

Darhaqiqat, quyoshning soyani ketkazishi va kitobdan nusxa olishda ma'lum miqdor mushtaraklik bor. Bu aslida ko'tarishlik hukmi bo'lib, soyada bo'lganda ochiq oydin bo'ladi. Chunki bu yerda soyaga zid narsa yordamida soya ketdi. Ammo kitobni nasx qilish borasida ko'tarishlik ma'nosni uzrli bo'lib qoladi. Negaki, yozish yordamida kitobdan ko'chirilgan gaplar faqat asl nusxadangina ifoda oladi xolos. Ifodalab berish esa asl nusxaga xos edi. Demak, o'sha asl ko'chirilganligi natijasida faqatgina unda bo'lgan ifodalab berishning unga xosligi ko'tarildi. Natijada soyaning ko'tarilishi va xoslikning ko'tarilishi "ko'tarilish" deb nomlangan ma'noda barobar bo'lib qoldi. Ba'zilar ikkalasining o'rtasidagi "ma'lum miqdor mushtaraklik" o'zgartirishlikdir, deyishgan. Shunday qilib nasx ikki ma'no o'rtasida ma'no jihatidan mushtarak bo'lib qoladi.

Qadimgi ulamolar "nasx" so'zini juda ham keng ma'noda ishlatganlar. Ular bu so'zni mutlaq holda – qaydlanmagan ma'noni qaydash uchun ham, umumiy

³ Ibn Hajar. Nuzhat an-Nazor sharhu nuhbat al-Fikar. – Bayrut: Maktabat ash-Shamiliya, 2020. – B. 61.

www.tadqiqotlar.uz

20-to'plam 2-son Iyun 2025

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ma’noni xoslash uchun ham, mubham va mujmalni bayon qilish uchun ham ishlataverganlar. Shuningdek, ularning bu so‘zni ishlatishlari ma’lum bir shar’iy hukmni keyin kelgan shar’iy dalil bilan amaldan qoldirishni ham o‘z ichiga olgan.

Ulamolar nasxning ta’rifida bir qancha turli-tuman ibora va jumlalarni ishlatganlar. Ularning barchasi, iboralari turlicha bo‘lishiga qaramasdan, shariat hukmlaridagi nasxni ifoda qiladi. Ushbu ta’riflarni qunt bilan o‘rganib chiqqan mutaxassis ulamolar ularning ichidan eng mukammali va maqsadni to‘liq anglatuvchisi o‘laroq, quyidagi ta’rifni tanlaganlar:

“Nasx – shar’iy hukmni keyin kelgan shar’iy dalil bilan bekor qilishdir”.

Ushbu ta’rifni ulamolarning ko‘pchiligi rozilik bilan ixtiyor etganlar va uni amal uchun qabul qilganlar⁴.

Ushbu ta’rifdagi bekor qilishni amalga oshiruvchi Alloh taoloning O‘zidir. U Zot shar’iy hukmni nasx qiladi, ya’ni amaldan qoldiradi – bekor qiladi. Bu haqdagi buyrug‘ini Rasululloh (s.a.v)ga vahiy orqali yetkazadi. Demak, shar’iy hukmni nasx qiluvchi Alloh taolodir. Mazkur ilohiy buyruqni tatbiq qiluvchi Rasululloh (s.a.v)dir. Shuning uchun Rasululloh (s.a.v)dan keyin nasx bo‘lmaydi.

Shar’iy hukmnинг bekor bo‘lishi deganda unga bandalarni taklif qilishning tugatilishi tushuniladi. Bir narsa avval harom bo‘lgan bo‘lsa, o‘scha hukm nasx bo‘lganidan keyin, mazkur narsa halol bo‘ladi. Yoki aksincha, halol bo‘lgan bo‘lsa, harom bo‘ladi.

Shar’iy hukm – mukallaflar, ya’ni shariat hukmlariga amal qilishi lozim bo‘lganlarning matlub yoki ixtiyoriy amallariga bog‘liq xitobdir.

Matlub amallar ikki xil bo‘ladi: amalga oshirilishi talab qilingan farz, vojib va mandub amallar hamda qilmaslik talab qilingan harom va makruh amallar.

Ixtiyoriy amallar – qilish yoki qilmaslik mukallafning ixtiyorida bo‘lgan, ya’ni muboh amallar.

Nasxning ta’rifida “bekor qilinishi” iborasining ishlatilishidan bekor qilish bo‘lmagan narsalarning nasxga kirmasligini bilib olamiz. Misol uchun, mujmalni – qisqacha, umumiylar tarzda aytilgan gapni bayon qilish, mutlaqni qaydlash, umumiyni

⁴ Ismoil ibn Umar Qurashiy. Jamius sunan val masonid. – Bayrut: Dar al- Kutub al- Ilmiyya, 2019. – B. 145.

www.tadqiqotlar.uz

20-to’plam 2-son Iyun 2025

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

xoslash kabilarda sobit bo‘lgan hukmni bekor qilish yo‘qdir. Balki bular ba’zi lafzlarni tafsir va bayon qilishdan iborat, xolos. Ammo ba’zi ulamolar bular bilan nasxni aralashtirib yuborib, xatoga yo‘l qo‘yanlar⁵.

Nasxda bekor qilingan narsa shar’iy hukm bo‘lishi Alloh taolo yangidan farz yoki vojib qilgan ibodat, qurbat va takliflar hamda harom qilingan ishlar, zararli odatlar, barcha johiliyat buyruqlari nasx emasligini anglatadi. Bularning hammasi nasx emas, balki avval bo‘lmagan, shariatga yangidan kiritilgan narsalardir.

Ta’rifda “shar’iy dalil” deyilgan. Demak, bu yerda nasx qiluvchi, ya’ni shar’iy hukmni bekor qiluvchi shar’iy dalil bo‘lishi shart. U ham nasx qilingan narsa kabi sobit bo‘lgan yoki undan ham kuchliroq bo‘lishi kerak.

Ta’rifdagi ushbu qayd bilan insondan uning o‘limi, jinni bo‘lib qolishi va g‘aflatda qolishi ila shar’iy taklifning soqit bo‘lishi kabi shar’iy hukmning bekor bo‘lishi nasxdan emasligi ayon bo‘ladi. Albatta, ushbu sabablardan birortasi voqe’ bo‘lsa, shar’iy taklif soqit bo‘lishiga aql dalolat qiladi. Chunki o‘lik, jinni va g‘ofil kishilar Allohning xitobini anglash qobiliyatiga ega emaslar⁶.

Ta’rifdagi “keyin kelgan shar’iy dalil” degan jumladagi “keyin kelgan” degan qayd juda ham zarur va nihoyatda muhim shartdir. Bundan nasx qiluvchi nasx bo‘luvchidan keyin kelishi anglanadi.

Shu bilan birga, nasx qiluvchi va nasx bo‘luvchi ikkisining orasida haqiqiy qarama-qarshilik bo‘lib, ularning orasini jamlashga mutlaqo imkon bo‘lmasligi shart. Ammo ikkisini jamlashga va ikkisiga amal qilishga imkon bor bo‘lsa, nasx haqida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas.

O‘rganilgan ma’lumotlarga ko‘ra ulamolarning deyarli barchasi nasx so‘zi ketkazish, ko‘chirish va o‘zgartirish ma’nosida qo‘llanilishiga ittifoq qilishgani, qaysi ma’noda haqiqat va qaysi ma’noda majoz ekanligi aslida muhim emasligi, buning natijasida katta farqlar ham ilmiy maqsad-manfaatlar ham vujudga kelmasligini ta’kidlashgan. Bu yerda keltirganimiz boisi shu kabi bahslar borligini bildirib qo‘yish maqsad edi. Qolaversa oz bo‘lsa-da bu bahsdan ilmiy maqsad bor

⁵ Doktor Nuriddin Itr. Manhaj an-Naqdi fi ulum al-Hadis. – Dimashq: Dor al-Fikr, 1979. – B. 167.

⁶ Ismoil ibn Umar Qurashiy. Jamiu as-Sunan val masonid. – Bayrut: Darul kutubul ilmiyya, 2019. – B. 146.

degan ulamolar ham topiladi.

Ushbu aytilgan fikrlarni o‘rganib, ulamolarning ular haqidagi qiyosiy ma’lumotlaridan kelib chiqib, “Nasx so‘zi ketkazish, yo‘qotish ma’nolarida haqiqat, ko‘chirish ma’nosida esa majozdir” degan fikr afzalroq ekani ma’lum bo‘ladi. Chunki lug‘at jihatidan ishlatilish o‘rniga binoan ko‘chirish ma’nosida majoz ekanligi zohirroqdir. Negaki kitobni ko‘chirganlik bilan undagi narsa o‘zida asli qanday bo‘lsa shunday boqiy qoladi. Undagi nusxa olindi, degan ma’no esa ko‘chirilish lafzidan majozan qo‘llangan. Demak ko‘chirilish ma’nosida majoz bo‘lsa, undan boshqa lafzda haqiqat bo‘ladi. Bu esa o‘z-o‘zidan ketkazish ma’nosida haqiqat deganidir⁷.

Shariatda nasxni yuzaga kelishi uchun ham bir qancha sabablar va omillar kerak bo‘ladi. Zero bir marta kuchli dalillar bilan sobit bo‘lgan hukm bekor bo‘lib, nasx qilinishi uchun o‘shanday quvvatdagi hukm talab qilinadi. Demak nasx yuzaga kelishi uchun oldin shariatda bitta masalada ikki xil dalillar kelgan bo‘lishi shart ekan. Mazkur kelgan ikkala dalil hukmda va dalolatida bir-biriga qarama-qarshi holatda bo‘lib, ta’vil yoki tavjihot beriladigan bironta jihatga yo‘l qolmasa, nasx yuzaga chiqadi. Bu vaqtida dalillardan birini mansux, keyingisini nosix demasdan o‘zga chora qolmaydi. Chunki Allohning kalomida aslida hech qanday ziddiyat kuzatilmaydi. Agar mazkur holatda qaysidir dalilni nasx bo‘lgan deyilmasa, shariatdagi dalillarni bir-biriga zid ma’noli holatda qoldirib ketgan bo‘linadi. Lekin bunday chigal vaziyatda qaysi dalil nosix va qaysi biri mansux deyiladi? Albatta, hech kim bu borada nafsi-havosidan gapirishi mumkin emas. Balki mazkur holatda ikkita dalillarning qay biri oldin kelgan va qay biri keyin kelganligi haqida qarinalar bo‘ladi. Bir-biriga qarama-qarshi turgan dalillarning qay biri oldin zikr qilinganligi ma’lum bo‘lsa, o‘sha oldingisi mansux bo‘ladi. Keyin zikr qilingani esa nosix bo‘ladi. Shu bilan masala ham nihoyasiga yetadi.

Hukmlarning ichida dalillarga qarab ularning nosix va mansuxini ajratib olish masalasida ulamolar uch xil maslakni zikr qilib o‘tishgan:

Bir hukmga tegishli ikkita naslarning birida ularning qaysi birlari keyin

⁷ Doktor Nuriddin Itr. Manhaj an-Naqdi fi ulum al-Hadis. – Dimashq: Dor al-Fikr, 1979. – B. 167.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kelganligini ajratib turadigan qarinasi bo‘ladi. Nabiy (s.a.v)dan qabrlarni ziyorat qilish masalasida 2 xil hukm rivoyat qilingan. Nabiy (s.a.v) aytadilar: Men sizlarni qabrlarni ziyorat qilishdan qaytargan edim. Ana endi qabrlarni ziyorat qilaveringlar. Bu yerda bitta masalada ikkita nas zikr qilindi. Holbuki ikkinchi nasning o‘zida bu nas oldingisidan keyin kelgani Nabiy (s.a.v) ana endi qabrlarni ziyorat qilaveringlar degan so‘zlaridan tushunib olindi. Demak, birinchi masalada zikr qilingan naslarning ichida masalaning javobi ham kelar ekan. Ya’ni, ikkita nasning birida ularning qaybiri keyin kelganligi ma’lum bo‘lar ekan.

Musulmon ulamolari jamoasi tomonidan qaysi bir asrda ma’lum bir masalada kelgan dalillar o‘rganilib chiqib ulardan birini oldin, boshqasini esa keyin kelganligiga ijmo qilinadi. Shu yo‘l orqali mazkur masaladagi nosix va mansux dalillar topilib, chigal masalaga yechim beriladi.

Sahih yo‘l bilan qaysidir sahobiydan ma’lum bir hukmdagi bir-biriga qarama-qarshi naslarning biri boshqasidan tarixi oldin yoki keyin ekani zikr qilingan bo‘ladi. Ya’ni sahobiy falon oyat falon yili nozil bo‘lgan. Bu oyat esa undan oldin nozil bo‘lgan edi deyishi mumkin. Yoki bu hadisni Nabiy (s.a.v) Makka davrida aytgan edilar. Bunisini esa Madinga hijrat qilganlaridan so‘ng aytdilar deyishi mumkin. Sahobalardan kelgan shunday rivoyatlar orqali ham nosix va mansux hukmlar orasi ajratib olinadi⁸.

Nasx bilan umumiylarni xoslash orasida katta farq bor. Ularning har ikkisining o‘ziga xos xususiyatlari va shartlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Nasx shar’iy hukmni bekor qilish va unga amal qilishni to‘xtatishdan iboratdir. Xoslash esa umumiylarni torroq doiraga, yoki yakka shaxsga, yoki jismlarga xos qilib qo‘yishdir. Bu haqiqatni to‘liq anglash uchun bir misol keltirildi.

Alloh taolo Oli Imron surasida marhamat qiladi:

“Odamlardan yo‘lga qodir bo‘lganlariga Allah uchun Baytni haj qilmoq burchdir”(97-oyat)⁹.

⁸Ibn Hajar. Nuzhat an- Nazor sharhu nuhbat al-Fikar.. – Bayrut: Maktabat ash-Shamiliyya, 2020. – B. 119.

⁹ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi. – Toshkent: Hilo Nashr, 2022. – B. 178.

Ushbu qavlning “Alloh uchun Baytni haj qilmoq burchdir” degan jumlasidan haj qilish hamma uchun umumiyligi anglanadi. Ammo, “Odamlardan yo‘lga qodir bo‘lganlariga” jumlesi o‘sha umumiylikni qodir bo‘lgan odamlarga xoslaydi. Bas, shunga binoan, haj ibodati qodir bo‘lgan, uning shartlarini o‘zida mujassam qilgan kishilargagina farz bo‘ladi.

2. Nasx Qur’on va Sunnat bilangina bo‘ladi. Xoslash esa mazkur ikki narsa bilan ham va yana aql, urf va qariyna – vaziyatga qarab ham bo‘lishi mumkin.

3. Nasx qiluvchi narsa nasx qilingan narsadan keyin nozil bo‘lishi yoki aytilishi shart. Nasx qiluvchi nasx qilingan narsa bilan barobar yoki undan oldin nozil bo‘lishi yoki aytilishi mutlaqo mumkin emas. Xoslovchi esa xoslangandan oldin ham, barobar ham, keyin ham kelishi mumkin.

4. Nasx buyurilgan yoki qaytarilgan amaliy, far’iy hukmlardan bo‘ladi. U asosiy qoidalarda, diniy aqiydalarda, xabarlarda, va’da hamda qo‘rqtish oyatlarida bo‘lmaydi. Xoslash esa aksincha, mazkur narsalarning barchasida bo‘ladi.

Xulosa shuki, nasxda Allah taoloning musulmon ummatiga lutfu karami hamda bu ummatga baxt-saodat va osonlikni iroda qilgani namoyon bo‘lgandir. U Zot ummat uchun amal qilishda og‘irlilik va mashaqqat tug‘diradigan hukmlarni birdaniga emas, asta-sekin joriy qilish uchun nasxni ishga solgan. Shu bilan birga, oson narsani nasx qilib, o‘rniga qiyinrog‘ini joriy qilgan taqdirda ham faqat yaxshilik jalb qilingan. Bu haqiqatni Allah taolo Qur’onning o‘zida bayon qilib qo‘ygan.

Yaxshi anglab yetish lozim bo‘lgan narsalardan biri nasxning shariatning buyruq va qaytarishni o‘z ichiga olgan juz’iy-far’iy hukmlaridagina bo‘lishidir. Allahga, U Zotning rasullariga, oxirat kuniga iymon keltirish kabi aqidaga oid, namoz, ro‘zaning farzligiga o‘xshash dinning rukni hisoblangan narsalarda nasx bo‘lmaydi. Shuningdek, va’da berish va qo‘rqtishga o‘xshash matnlarda ham nasx bo‘lmaydi. Chunki bu kabi narsalarning tabiatining o‘zi nasxni ko‘tarmaydi. Yana o‘tgan ummatlarning xabarlariga o‘xshash narsalarda ham nasx bo‘lishi mumkin emas.

XULOSA

Xulosa shuki, fuqaholar Qur'on va Sunnat, ijmo‘ va qiyos kabi masdarlardan foydalaniib, shar'iy hukmlar chiqarish uchun “Usulul-fiqh” nomli qonun-qoidalar majmui ilmini ijod qilganlar. Bu nihoyatda ulkan ilm bo‘lib, undagi nozik qonun-qoidalar yordamida Qur'on oyatlari va Payg‘ambarimiz (s.a.v)ning hadislari, ularning nozil bo‘lish yoki aytilish sabablari diqqat bilan, sinchiklab tekshiriladi. Ularda kelgan hukmlar umumiymi yoki ma'lum bir shaxs, makon yoki zamonga xosmi – shular erinmay o‘rganiladi. Shuningdek, qaysi biri nosix – boshqasini amaldan qoldirganligi va qaysi biri mansux – amaldan qolganligi o‘rganiladi. Bunga o‘xhash nozik masalalar juda ham ko‘p va ularni asosan, mutaxassislar tadqiq qiladilar va yaxshi tushunadilar.

Islom yangi kelgan paytda insoniyat jamiyatida ko‘plab bid’at-xurofot va noto‘g‘ri urf-odatlar hukm surar edi. Odamlarning qon-qoniga singib ketgan ana shu narsalarni muolaja qilishda nasx deb atalgan uslub ham ishlatilgan. Hadisi shariflarning nosix va mansuxini bilish juda ham muhim. Ulamolar bunga katta ahamiyat berishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

Abdulhafiz.F. Qirq hadis sharhi – Toshkent: Qamar media, 2021.

Imom Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. – Toshkent: Movarounnahr, 2006.

Imom Buxoriy. Al-Jomi’ as-sahih. – Toshkent: Movarounnahr, 1991.

Murodov D. Hadis to‘plamlarining qiyosiy tahlili – Toshkent: Complex Print, 2019.

Rahmatulloh qori Obidov. Sunnat hadis va muhaddis. – Toshkent: Movarounnahr, 2012.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot – Toshkent: Hilol nashr, 2020.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – Toshkent: HilolNashr, 2021.

Hadisshunoslik: o‘quv qo‘llanma –Toshkent: Toshkent islam universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.Zohidjon Islomov. Imom G‘azoliy: qirq hadisi qudsiy asari. –Toshkent: Toshkent Islom Universiteti Nashriyot-Matbaa Birlashmasi, 2008.